

SHE'RIY MATNDA SIFATLARNING PRAGMATIK MAZMUN IFODALASHI

Dilnoza Nosirjon qizi Sarbarova,

*O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek tilshunosligi
kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.f.d., PhD*

Tursunboyeva Maftuna Raximjon qizi,

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada she'riy matnlarda sifatlarning pragmatik mazmun ifodalashdagi o'rni lingvopragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Unda sifatlarning she'riy matnda faqatgina predmet belgisini ifodalab qolmay, balki muallifning subyektiv munosabati, emotsional bahosi hamda kommunikativ maqsadini yuzaga chiqaruvchi muhim vosita ekanligi tahlil qilingan. Shuningdek, sifatlarning she'riy matnda pragmatik ma'no hosil qilishi deyksis, presuppozitsiya va nutqiy akt nazariyalari asosida amaliy misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, she'riy matn, sifat, deyksis, presuppozitsiya, nutqiy akt.

Annotation. The article investigates the role of adjectives in conveying pragmatic meaning within poetic texts from a linguopragmatic perspective. It analyzes how adjectives in poetic discourse do not merely denote the attributes of an object, but rather function as an essential vehicle for manifesting the author's subjective attitude, emotional evaluation, and communicative intent. Furthermore, drawing upon the theories of deixis, presupposition, and speech acts, the study elucidates the generation of pragmatic meaning by adjectives through practical textual analysis.

Keywords: linguopragmatics, poetic text, adjective, deixis, presupposition, speech act.

Аннотация. В статье с лингвопрагматической точки зрения исследуется роль прилагательных в выражении прагматического содержания в поэтических текстах. Анализируется тот факт, что прилагательные в поэтическом тексте не только выражают признак предмета, но и выступают в качестве важного средства, выявляющего субъективное отношение, эмоциональную оценку и коммуникативную установку автора. Также на основе теорий дейксиса, presupпозиции и речевых актов посредством практических примеров освещается процесс формирования прагматического значения прилагательных в художественном дискурсе.

Ключевые слова: лингвопрагматика, поэтический текст, прилагательное, дейксис, presupпозиция, речевой акт.

Kirish. Sifat so'z turkumi predmetning belgi va xususiyatlarini ifodalovchi leksik-grammatik birlik bo'lib, u rang, hajm, shakl, his-tuyg'u va boshqa belgilarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Sifatlar nutqda predmetni aniqroq tasvirlash uni boshqa predmetlardan farqlash hamda uning muhim jihatlarini ajratib ko'rsatishda muhim o'rin egallaydi. Sifatlar semantik va pragmatik jihatdan eng boy so'z turkumi bo'lib, she'riyatda ularning qo'llanilishi alohida o'rganishni talab etadi. Sifatlarning pragmatik tahlili she'riy matnning chuqur ma'nolarini ochishga, shoirning ijodiy mahoratini baholashga yordam beradi. Sifatlar semantik jihatdan juda keng va murakkab qatlamni tashkil qiladi. Sifat semantikasi ko'pincha subyektiv baholash bilan ham bog'liq bo'ladi. Chuki ayrim sifatlar obyektiv belgini emas, so'zlovchining munosabatini ham bildiradi.

Adabiyotlar sharhi. She'riy matnda sifatlarning roli oddiy tasvir vazifasi bilan cheklanib qolmaydi. Ular she'riy nutqning asosiy estetik vositalaridan biri sifatida obraz

yaratish jarayonida faol ishtirok etadi. Shoirlar sifatlar orqali nafaqat tashqi ko‘rinishni, balki ichki holat, ruhiy kechinma va emotsional munosabatni ham ifodalaydi. Tilshunos olim M.Hakimov o‘zining tadqiqotlarida til birliklarining pragmatik xususiyatlari, ularning nutq subyekti maqsadi bilan bog‘liqligi haqida fikr yuritadi[2:48]. Bu yondashuvga ko‘ra, sifatlar she‘riy matnda faqat belgi ifodalovchi birlik emas, balki muallifning kommunikativ niyatini ham aks ettiruvchi vosita sifatida qaraladi. Shu sababli she‘riyatda sifatlar ko‘pincha kuchli ekspressiv yuklama bilan namoyon bo‘ladi.

Pragmalingvistik nuqtayi nazardan yondashilganda, sifatlar nafaqat belgi ifodalovchi birlik, balki kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ular orqali muallif o‘zining yashirin bahosi, munosabati va hissiy pozitsiyasini ifodalaydi. Shu jihatda she‘riy matnlarda sifatlar presuppozitsiya, deysis hamda nutqiy akt kabi hodisalarni yuzaga keltiradi.

Nutqiy aktlar ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, J.Ostin, K.Allan, J.Serl kabi pragmalingvist olimlar tomonidan nutqiy akt nazariyasiga oid ilmiy taqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Sh.Safarov, M.Hakimov ham o‘z tadqiqot ishlarida nutqiy akt nazariyasi bo‘yicha o‘z qarashlarini bildirgan hamda yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning nutqiy akt tasnifiga doir qarashlarini sharhlab o‘tgan. A.Maslova esa nutqiy akt borasida quyidagicha munosabat bildirgan: “Nutqiy akt bu muayyan maqsad bilan yuzaga kelgan, faol ta’sir vazifasiga ega ifodadir” [3:51].

Presuppozitsiya til hodisalaridan biri bo‘lib, unda ma’no to‘g‘ridan to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalanmaydi, balki gapning tuzilishi va mazmunidan anglashiladi. Ya’ni leksik birliklar yoki boshqa til vositalari orqali yetkazilayotgan ma’no ochiq ko‘rinishda bo‘lmaydi. Ushbu yashirin ma’no matn yoki so‘zning mazmuniga chuqurroq e’tibor qaratilganda namoyon bo‘ladi. presuppozitsiya – bu yuzada bevosita ifodalanmagan, ammo tinglovchi tomonidan anglanishi ko‘zda tutilgan yashirin mazmun bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Buni turli she‘riy parchalarda ham kuzatish mumkin. Masalan:

Seni menga yomon desa kim,

Kechirmayman bir umr uni (S.Zunnunova “Yana qizimga”)

Ushbu parchada qo‘llangan *yomon* sifati orqali “*sen yaxshi odamsan*” degan yashirin axborot anglashiladi. Ya’ni, salbiy sifatning qo‘llanishi orqali ijobiy mazmun implitsit tarzda yuzaga chiqariladi.

Nutqda predmetning rang-tusini ifodalovchi sifatlar orqali ham presuppozitsiya hodisasiga yo‘l ochiladi. Masalan, quyidagi she‘rni tahlilga tortamiz:

Qalam tutganimda birinchi marta,

Oppoq chehra bilan kulib qarading. (S.Zunnunova. “Qog‘oz”)

Bilamizki, oq rangning ramziy ma’noda xususiyatlari turli xil. *Oq* sifati she‘rlarda qo‘llanishi bilan insonning ruhiyatidagi salbiy holatni, azadorlikni, kasallikni shuningdek, poklik, rozilik, samimiylikni ham ifodalaydi.

Deyksis hodisasi dastlab qadimgi yunon grammatikachilari tomonidan til tizimining muhim elementi sifatida qayd etilgan bo'lsa, keyinchalik u umumtilshunoslikning asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. XX asrga kelib, ayniqsa pragmatika yo'nalishi rivojlanishi bilan deyksis tilning faqat grammatik emas, balki kommunikativ va kontekstual jihatdan ham muhim kategoriyasi sifatida o'rganila boshlandi. "Deyksis" atamasi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, uning asl ma'nosi "ko'rsatish", "ishora qilish"ni anglatadi. Zamonaviy tilshunoslikda esa bu tushuncha lisoniy vositalar yordamida voqelikdagi shaxs, predmet, makon zamonga ishora qilish funksiyasini bildiradi. Bunday ishora vazifasini bajaruvchi til birliklari deytik birliklar deb yuritiladi[1:154].

Tadqiqot metodologiyasi. She'riy matn tahlilida tavsiflash, tasniflash, qiyoslash hamda kontekstual metodlardan foydalaniladi. Shuningdek, she'riy matnda keltirilgan sifatlarni o'ziga xos pragmatik mazmun ifodalaydi hamda she'rning ta'sir doirasini kengaytiradi. Bunga esa quyida keltirilgan misralar orqali guvoh bo'lamiz:

Naxot qachonlardir chiqadi quyosh,

Nurga yo'g'riladi bu sovuq dunyo?

Endi bu hayotim ketguncha bardosh,

Endi bu hayotim meniki tanho. (Usmon Azim, "Saylanma")

Ushbu misralarda hamda sifat orqali deyksis hodisasi yuzaga kelganini ko'rish mumkin. "Sovuq" sifati dunyoning oddiyligi belgisini bildirishidan tashqari she'rda lirik qahramonning ruhiy holatini, umrga bo'lgan sovuq munosabatiga ham ishora qilgan. Tilshunoslikda deyksis hosil qiluvchi birliklar juda ko'p hisoblanib, ularning turlari ichidan belgi va miqdorni ifodalab keluvchilar ham keng uchraydi. Ularning orasidan sifat so'z turkumida ham ishoraviylik belgisi mavjuddir. Masalan:

Qizil chiroq – yo'l yo'q. To'xtagin,

Qizil chiroq – eshiklar yopiq.

Nima qilay – meni sevmading,

Qizil chiroq ko'zingda yoniq. (Usmon Azim, "Saylanma")

Yuqoridagi misralarda ham deyksis hodisasi kuzatiladi. "Qizil chiroq" birikmasi tarkibida qo'llangan qizil sifati orqali predmetning belgisi ma'nosidan tashqari ramziy ishora sifatida ham qo'llangan. Ya'ni muhabbat yo'li yopiqligi, to'siq kabi ma'nolarni bildirib, lirik qahramonning ruhiy holatiga ham ishora qilib kelgan.

Dushman xazon qilgan gulsiz u bog'lar,

Sevganing qo'lida topgusi hayot.

Gulzorda sayrolmas boyqushlar, zog'lar,

Bahor qushlari boz yelpigay qano. (Zulfiya "Hijron kunlarida")

Ushbu misralardagi "gulsiz bog'lar" birikmasidagi gulsiz sifati muhim deyiktik yuklamaga ega. Bu sifat misrada faqatgina belgiga ega emaslikni bildiribgina qolmay, biror vaziyatga e'tiborsizlik, bo'shliq va zavqsizlik kabi holatlarga ham ishora qilgan.

Nutqiy akt nazaryasi – tilshunoslik va falsafada so‘zlashni shunchaki ma’lumot uzatish emas, balki muayyan ijtimoiy harakat deb hisoblaydigan pragmatik ta’limot. J.Ostin va J. Syorl tomonidan asos solingan bu nazariya tilning ijtimoiy reallikni shakllantiruvchi vosita ekanligini ochib beradi, bunda har bir nutqiy harakat orqali inson munosabatlarini o‘zgartirishi yoki maqsadini amalga oshirishi mumkin.

Ulkan tog‘ bag‘rida ikki qizg‘aldoq

Bahor fasli bo‘yin cho‘zibdi.

Dosh berolmay daydi shamolga,

Essiz, biri ado bo‘libdi.

Ko‘p chiranma, ey alpqomat tog‘!

Osmonlarga yetsa ham boshing.

Vaqti kelsa asray olmaysan,

Bag‘ringdagi qizg‘aldoqlaring... (M.Yusuf “Iltijo”)

She’rdagi asosiy illokutiv maqsad – hayotdagi yo‘qotishlar oldida insonning oqizligini ko‘rsatish va kibrdan qaytarish. Muallif bu bilan kuch va qudratning ham cheklanganligini uqtiradi, insonni kamtarlikka chaqiradi. She’r o‘quvchini hayot haqida falsafiy mushohada qilishga undaydi., insoniy oqizlikni his qildiradi. She’rdagi “*ulkan*”, “*daydi*”, “*alpqomat*” kabi sifatlar asosiy poetik va pragmatik yuklamani hosil qilmoqda. Ta’sirchanlikni oshirib, hissiy drammatizmni kuchaytirgan va o‘quvchining tasavvurida *ulkan tog‘ – nozik qizg‘aldoq* kabi o‘zaro qarama-qarshi holatni yuzaga keltirgan. Va bu pragmatik qarama-qarshilik she’riy matnning asosiy g‘oyasini ochishga xizmat qiladi. Demak, sifatlar poetik tasvirni yaratish bilan birga matnning yoki nutqning falsafiy va pragmatik mazmunini ochishda ham muhim morfologik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Yana Usmon Azim misralarini tahlilga tortsak:

Tarovat baxsh etgan sehrli kecha,

Ismingni pichirlab neha va necha,

Tonglarni oqartdim mayingdan icha,

Sen borsan, sen borsan, borlig‘im!.. (Usmon Azim “Saylanma”)

Shoirning ushbu misralarini har uchala akt turi bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak: she’rdagi lokutiv akt ya’ni aytilgan mazmun – lirik qahramon sevgan insoniga bo‘lgan kuchli muhabbat va ruhiy bog‘liqlikni ifodalagan. Illokutiv akt ko‘rinishiga ko‘ra esa, she’rning asosiy maqsadi – muhabbatning inson hayotidagi ruhiy va emotsional ahamiyatini ifodalashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Til insonlarning so‘zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu harakatlarning bajarilishi jarayonida gap asl ma’nosidan tashqari, *tasdiqlash, buyurish, ogohantirish, va’da berish* kabi mzmunni ifodalash imkonini ham namoyon qiladi. Bu ma’nolar so‘zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasi hisoblanadi. Shunday ekan, nutqiy akt nazaryasi ma’lum muhitda, aniq maqsadni ifodalash uchun so‘zlovchining tinglovchiga lisoniy murojaatidir[6:419].

Nutqiy aktlar she'riy matnda deytik birliklar bilan yonma-yon kelib, muhim ahamiyat kasb etadi. She'riy matn tahlilida, tavsiflash, tasniflash, qiyoslash hamda kontekstual metodlardan foydalaniladi. Shuningdek she'riy matnlarda yuqorida sanab o'tilgan nutqiy aktning uch ko'rinishi ham ifodalanadi va bular ayniqsa sifat so'z turkumlarida yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Bunga esa quyidagi misralar orqali yanada amin bo'lamiz:

Qish bahaybat, daxshat yirtqich qush,

Changalida tosh oqtgan olam...

Sen tarafda eridimi muz,

Yo qishmisan hali-hali ham? (Usmon Azim "Qish")

Usmon Azimning ushbu misralarida nutqiy aktning illokutiv ko'rinishi ifodalangan bo'lib, misra orqali shoir o'zining maqsadini ochiqqlamoqda, ya'ni savol orqali qarshi tomon kayfiyatini aniqlamoqchi bo'lyapti: *Hali ham qish, ayozdek sovuqmisan yoki eridingmi? Qay holatdasan? Va bunda ayozdek, sovuq* sifatlari mohiyatni ko'rsatishda boshqa so'zlarga nisbatan faolroq.

Usmon Azimning quyidagi misralarida esa nutqiy aktning lokutiv ko'rinishini kuzatishimiz mumkin:

Ammo bizning ko'zimizda

To'kmoq uchun yoshimiz ko'p,

Ko'nglimizga otmoq uchun

Tilimizda toshimiz ko'p.

Go'yo hali o'lmoq uchun

Boshimiz ko'p, boshimiz ko'p

Bo'lmasa... O, kelmasmidi

Baxtli – baxtli yashagimiz... (Usmon Azim "Tosh-beton cho'ng qoyalarda...")

Ya'ni bu yerda ibora, ko'chma ma'nolardan faol foydalanilgan va bu she'rni yana ham emotsional qilib, ta'sirchanlik xususiyatini oshirgan. "*Ko'ngilni otmoq*", "*tilimizda toshimiz ko'p*", "*boshimiz ko'p*" kabi ibora va metaforalar asosiy lokutiv akt birliklari bo'lib xizmat qilmoqda va bu yerda ham biz miqdor sifatini (*ko'p*) asosiy rolda ko'ramiz.

Quyidagi misralarda esa nutqiy aktning perllokutiv akt turini ham kuzatishimiz mumkin:

Baxt bu – sensan,

Baxtsizlik – bu men.

Ketmoqdaman,

Qochoqqa yo'yma.

Men o'zimni topib kelguncha,

Sen o'zingni yo'qotib qo'yma! (Usmon Azim "Baxt")

Ta'kidlash joizki, nutqiy akt vujudga kelishida nafaqat so'zlovchi balki tinglovchining ham o'rni katta hisoblanadi. Nutqiy akt nazaryasi tilni ijtimoiy reallikni

ko'rsatuvchi vosita sifatida qabul qiladi. Ya'ni unga ko'ra har bir harakat biror natijaga erishish uchun qilinadi. Har bir so'z, har bir gap ayniqsa kommunikativ muhitda, faqat semantik mazmun bilan emas, balki ijtimoiy harakatni amalga oshirish salohiyati bilan ham baholanadi va bunda ayniqsa sifat so'z turkumining o'rni salmoqlidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda sifatlar nafaqat belgi ifodalovchi birlik, balki kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Ular orqali muallif o'zining yashirin bahosi, munosabati va hissiy pozitsiyasini ifodalaydi. Bu jihatdan sifatlar she'riy matnda deyiktik va pragmatik funksiyalar bilan chambarchas bog'liq holda ishlaydi. Ya'ni sifatlar odatda predmetning belgisini ifodalovchi birlik sifatida talqin qilinadi, biroq ular she'riy matnda va nutq jarayonida kontekstga bog'liq holda kengroq ma'no kasb etadi. Bir xil sifat turli nutqiy vaziyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Bu esa sifatlarning semantik moslashuvchanligini va ularning deyktik imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008.
2. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2001.
3. Коровина И.В. Параметры дейктической процедуры в англоязычной научной коммуникации. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Иванова, 2011.
4. Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. – Ташкент: Фан, 1989.
5. Sarbarova D.N. Matn va diskurs tushunchalari. Science and innovation international journal. June2,2022. <https://zenodo.org/records/7998832>
6. Sarbarova D.N. Usmon Azim she'rlarida deyxsisning noodatiy turlari tahlili. Science and innovation international journal. Volume ISSUE 8. UIF-2022:8.2. <https://scientists.uz/uploads/202208/B-419.pdf>
7. Азим Усмон. Сайланма. – Тошкент, 1995.
8. Зулфия. Шерлар. Тошкент, 2005.